



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60210500 – Rangtasvir: dastgohli
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60210500 – Rangtasvir: dastgohli

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: SAGATOV ABDUMAJID ABDUMAVLANOVICH

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Dotsent



A'zo: LELIA PIURVAN RUS

Ovidius University

falsafa doktori (PhD)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260093
Xulosa raqami	914
Xulosa sanasi	10.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, A.Temur ko'chasi, 104-uy. Guvohnoma: MAS № 0000137, 16.06.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Rangtasvir: dastgohli
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60210500
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000137, 16.06.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60210500 – Rangtasvir: dastgohli
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60210500 – Painting (Easel)
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60210500 – Живопись (станковая)
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi, kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Rassom, o'qituvchi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	100 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, A.Temur ko'chasi, 104-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra, 60210500 – Rangtasvir: dastgohli bakalavriat ta'lim dasturining me'yoriy-huquqiy, moddiy-texnik, institutsional, moliyaviy-resurs hamda sifatni ta'minlash infratuzilmasi baholash mezonlariga to'liq muvofiq deb baholanadi. Dasturga mas'ul "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasida yuqori kadrlar salohiyatiga ega bo'lib, universitet nizomi doirasida o'quv-uslubiy faoliyat, kadrlar siyosati va tashqi hamkorlikni amalga oshirish bo'yicha zarur akademik vakolatlarga ega. Kafedra faoliyati amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilgan bo'lib, uning vakolatlari va funksiyalari aniq belgilangan. 2026–2030-yillarga mo'ljallangan istiqbolli rivojlanish rejasi strategik maqsadlar, mas'ul ijrochilar hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yo'nalishlarini qamrab olgan bo'lib, u universitetning umumiy rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashtirilgan. Ichki sifatni ta'minlash tizimida monitoring va baholash mexanizmlari hamda manfaatdor tomonlar ishtirokini ta'minlash tartiblari joriy etilgan. Mazkur tashkiliy-boshqaruv modeli ta'lim dasturining barqaror va sifatli amalga oshirilishi uchun ishonchli institutsional asos yaratadi. O'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan mazkur yo'nalish bo'yicha tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash mezonlari muvofiq deb baholanadi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha taqdim etilgan o'quv-me'yoriy hujjatlar, xalqaro va tashqi ekspertiza xulosalari, kafedra hamda fakultet kengashi qarorlari, shuningdek o'quv jarayonini tashkil etish mexanizmlarining kompleks tahlili natijasida ta'lim dasturi Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi hamda xalqaro talablar (ESG, ECTS)ga muvofiq deb baholanadi. Ta'lim dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash jarayoni milliy me'yoriy-huquqiy tartiblar asosida, ishchi guruhlar, kafedra va kengashlar bosqichlari orqali

kollegial tartibda amalga oshirilgan. Dastur maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va kompetensiyalari o'zaro uzviy bog'langan hamda oliy ta'lim muassasasining akademik profili bilan muvofiqlashtirilgan. Dasturning konseptual asosida an'anaviy akademik rangtasvir maktabi zamonaviy raqamli texnologiyalar, jumladan sun'iy intellekt, Photoshop, Procreate va raqamli modellashtirish vositalari bilan uyg'unlashtirilgani muhim ustunlik sifatida baholanadi. QS TOP-300 reytingiga kiruvchi yetakchi oliy ta'lim muassasalari (Royal College of Art va University of the Arts London) tajribasi asosida amalga oshirilgan benchmarking dastur mazmunining xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlovchi omil sifatida e'tirof etiladi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi mazmuni bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholanadi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijasida ta'lim dasturining o'quv-me'yoriy arxitekturasi Milliy malakalar ramkasi, Davlat ta'lim standartlari hamda xalqaro standartlar (ESG, ECTS) talablariga muvofiq ravishda loyihalashtirilgani aniqlanadi. Dasturning konseptual asosida an'anaviy akademik rangtasvir maktabi zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan bo'lib, bu o'quv jarayonining muhim ustunligi sifatida baholanadi. QS TOP-300 reytingiga kiruvchi yetakchi oliy ta'lim muassasalari (Royal College of Art va University of the Arts London) tajribasi asosida amalga oshirilgan benchmarking natijalari o'quv rejalari va fan dasturlari (sillabuslar) mazmuniga tatbiq etilgan. O'quv jarayonini tashkil etish, ishchi o'quv rejalari va fan dasturlarini ishlab chiqish ish beruvchilar hamda soha mutaxassislari ishtirokida amalga oshirilgan bo'lib, fanlarning maqsadlari, o'quv natijalari va baholash mezonlari o'rtasida mantiqiy bog'liqlik ta'minlangan. Rangtasvir yo'nalishi uchun nazariy bilimlarni amaliy ijodiy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi va mazkur tamoyil ta'lim dasturida izchil amalga oshirilgan. Baholash tizimining shaffofligi hamda akademik halollikni ta'minlash mexanizmlarining mavjudligi ijobiy baholanadi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan o'quv jarayoni va baholash tizimi muvofiq deb baholanadi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob doirasida amalga oshirilgan monitoring va funksional tahlil natijasida ta'lim dasturi bo'yicha talabalar faoliyatini tashkil etish tizimi ijobiy baholanadi. Tizimning barqarorligi va samaradorligi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan asosiy tarkibiy elementlar orqali ta'minlangan. Birinchidan, akademik va huquqiy kafolatlar

shakllantirilgan bo'lib, qabul shartlari, talabalar harakati va apellyatsiya jarayonlari HEMIS axborot tizimi orqali raqamlashtirilgan hamda ma'muriy shaffoflik ta'minlangan. Ikkinchidan, resurslar va infratuzilma imkoniyatlari ta'lim dasturi ehtiyojlariga muvofiqlashtirilgan bo'lib, axborot-resurs markazining o'quv zallari sig'imi, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatlari yaratilgan. Qabul mezonlari va talablari aniq belgilangan hamda abituriyentlarga ochiq shaklda yetkazilishi ta'minlangan. Talabalar harakatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib, talabalarni akademik va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish mexanizmlari joriy etilgan. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan talabalar faoliyati yo'nalishi bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholanadi hamda mazkur tizim shaffof, adolatli va mavjud resurslar bilan muvozanatlashgan deb e'tirof etiladi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha o'tkazilgan kompleks hujjatlar ekspertizasi, HEMIS tizimi auditi hamda professor-o'qituvchilar tarkibi bilan o'tkazilgan suhbatlar natijalari tahliliga ko'ra, inson resurslari salohiyati baholash mezonlariga muvofiq deb baholanadi. Mavjud ilmiy salohiyat 43,75 foizni tashkil etadi. Uni 2030-yilga qadar 70 foizga yetkazishga qaratilgan, 2026–2030-yillar uchun belgilangan PhD dissertatsiyalarini himoya qilish rejasi hamda maqsadli doktorantura yo'l xaritasi asosli va amalga oshirilishi mumkin bo'lgan rivojlanish mexanizmi sifatida e'tirof etiladi. Professor-o'qituvchilar tarkibi son va sifat jihatidan bakalavriat ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli hisoblanadi. Sirtqi ta'lim shaklining yopilishi hamda o'quv yuklamalarining optimallashtirilishi natijasida kadrlar salohiyatini asosiy ta'lim yo'nalishiga samarali yo'naltirish imkoniyati yaratilgan. Kadrlarni rivojlantirish, malaka oshirish va rag'batlantirish mexanizmlarining tizimli yo'lga qo'yilgani ijobiy baholanadi. Rangtasvir kabi ijodiy yo'nalishda professor-o'qituvchilarning amaliy badiiy tajribaga ega bo'lishi ta'lim sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan inson resurslari yo'nalishi bo'yicha mezonlar muvofiq deb baholanadi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha "Rangtasvir" ta'lim dasturining moddiy-texnik, axborot-resurs va raqamli infratuzilma ta'minoti tahlili natijasida u baholash mezonlariga muvofiq deb baholanadi. Fakultetning jami ishchi maydoni 5172 m² ni tashkil etib, amaldagi

qurilish va sanitariya me'yorlariga muvofiq shakllantirilgan. Bir talabaga to'g'ri keladigan maydon ko'rsatkichi belgilangan me'yorlarga mosligi bilan ta'minlangan. Ta'lim dasturining amaliy va o'quv-uslubiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, neytral rang yechimlari, shimoliy yorug'lik effekti va baland shiftlar kabi maxsus talablarga javob beradigan 4 ta ixtisoslashtirilgan studiyaning tashkil etilgani muhim ustunlik sifatida baholanadi. Rangtasvir yo'nalishi uchun aynan shunday yorug'lik va makon sharoitlari talabalarning ijodiy hamda kasbiy tayyorgarligi sifatini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Axborot-resurs markazi, elektron kutubxona, zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamli ta'lim muhitining mavjudligi o'quv jarayonini axborot jihatidan samarali qo'llab-quvvatlaydi. O'quv xonalari va studiyalarning talabalar kontingentiga mosligi ta'minlangan. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholanadi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyati hozirda 43,75 % ni tashkil etadi; uni 2030-yilga qadar belgilangan darajaga (70 %) yetkazish bo'yicha ishlarni izchil davom ettirish talab etiladi.
- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni muntazam yangilab borish maqsadga muvofiq.
- ✓ Zamonaviy raqamli badiiy vositalar va xalqaro hamkorlik (benchmarking) natijalarini o'quv jarayoniga to'liqroq tatbiq etish tavsiya etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Maqsadli doktorantura va PhD himoyalari xaritasini izchil amalga oshirib, ilmiy salohiyatni 2030-yilga qadar 70 % ga yetkazish.
- ✓ Indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilab borish.
- ✓ Xalqaro yetakchi muassasalar (Royal College of Art, UAL) bilan hamkorlik va benchmarkingni davom ettirish.
- ✓ Ixtisoslashtirilgan studiyalar va raqamli badiiy resurslar bazasini yanada rivojlantirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Chirchiq davlat pedagogika universiteti" davlat muassasasida 60210500 – "Rangtasvir: dastgohli" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, dasturni amalga oshirish uchun zarur institutsional asoslar ("Tasviriy san'at va dizayn" kafedrası), Davlat ta'lim standartlari va xalqaro talablar (ESG, ECTS) asosida, an'anaviy akademik rangtasvir maktabini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirgan o'quv dasturi hamda ixtisoslashtirilgan studiyalar bilan ta'minlangan moddiy-texnik baza (5172 m²) shakllantirilgan. Tashkiliy-boshqaruv, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyati, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlarining barchasi belgilangan mezonlarga muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar — ilmiy salohiyatni belgilangan darajaga yetkazish va dalillovchi materiallarni kengaytirish — dasturni amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydigan, asosan takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xarakterga ega. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlariga mos keladi. Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	16.06.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	3-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

